

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SYUJETLI-ROLLI  
O'YINLARNING AHAMIYATI**

*Abduqayumova Marjona Olim qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika*

*universiteti 1-bosqich talabasi*

*abduqayumovamarjona1003@gmail.com*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotida syujetli rolli o'yinlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ta'limiy faoliyatlar jarayonida tashkil etiladigan syujetli-rolli o'yinlarning bola rivojlanishidagi o'rni to'g'risida fikr-mulohazalar yoritiladi.

**Abstract**

This article talks about the importance of role-playing games with a plot in the organization of preschool education. Opinions about the role of role-playing games organized in the course of educational activities in the child's development are highlighted.

**Абстрактный**

В данной статье говорится о значении ролевых игр с сюжетом в организации дошкольного образования, освещаются мнения о роли ролевых игр, организуемых в ходе учебной деятельности, в развитии ребенка.

**Kalit so'zlar:** o'yin faoliyati, sahnalashtirilgan o'yinlar, tarbiya, ta'lim, qoidali o'yinlar, rostgo'ylik, aktyorlik, o'z fikrini bayon qila olish, bola "men"ining shakllanishi, qiziqarli syujetlar.

**Key words:** game activity, staged games, upbringing, education, rule games, honesty, acting, being able to express one's opinion, the formation of the child's "I", interesting plots.

**Ключевые слова:** игровая деятельность, постановочные игры, воспитание, обучение, правила игры, честность, актерское мастерство, умение высказать свое мнение, формирование «Я» ребенка, интересные сюжеты.

Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama etuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan

iborat. Otgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘tib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta‘limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Maktabgacha ta‘lim tizimiga alohida to‘xtalib o‘tganlar va bir qancha vazifalar belgilab berilgan: Maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasini oshirish. Maktabgacha ta‘lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish. Maktabgacha ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish; 2022-2026-yillarda pedagog kadrlarning malakasini oshirish; Maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish; Maktabgacha ta‘lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash; Maktabgacha ta‘lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

O‘yin bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlari mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g‘ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-Vatanga, o‘z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohish-istaklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadilar.

Syujetli o‘yinlar ham bola rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyat hisob etiladi. Syujetli-rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur turdagi o‘yinlarning o‘ziga xosligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Buning uchun albatta, bolalar biror narsa yoki voqea to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Masalan, bolalar “parovoz”



o‘yinini o‘ynashmoqchi bo‘lishadi. Bunga o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada avval g‘oya tug‘iladi, keyin mazmuni rivojlanadi. Ba‘zan bolalar o‘yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, ular orasidan kim “parovoz” bo‘lishi, qolganlar uning orqasidan ergashishi, qayerga borganda navbat almashishlarini oldindan kelishib olishadi.

Syujetli-rolli o‘yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalarni kerakli yo‘nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratishi lozim:

1) bolalar o‘yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o‘yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;

2) tarbiyachi bolalarning o‘yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istaklarini bilib olib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;

3) syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynash uchun ma‘lum joy ajratish lozim;

4) o‘yin jarayonida kerak bo‘ladigan o‘yinchoqlarni bolalar mustaqil o‘zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog‘och bo‘laklari, mix, loy, qog‘oz, karton, bo‘yoq va kerakli asboblari - bolg‘acha, qo‘larka, qaychi, pichoq kabilari berish kerak. Biroq o‘yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;

5) o‘yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o‘ynashga o‘rgatish usullaridan biridir. Tarbiyachi bolalarning rolli o‘yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to‘g‘risida ham o‘ylashi kerak;

6) tarbiyachi hamma bolalarning o‘yinga qatnashishlari ustida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. O‘yinda ko‘pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladilar. Bolalarni bunday kelishmovchiliklarni haqqoniy yechishga o‘rgatish lozim.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida syujetni aks ettirish birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshda yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Rol syujetli-rolli o‘yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O‘yinning syujeti -o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. Bu o‘yinlarni olib borishda ham bolalar uchun turli vositalar kerak. Masalan: rollarga oid o‘yinchoqlar. O‘yinning tuzilishi va mazmuni o‘zgarishi bilan o‘yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o‘zgarib boradi. O‘yinchoq bola harakatini to‘ldiradi, o‘ylagan obrazi va fikrini amalga

oshirishga yordam beradi. Shifokor kiyimini kiygan bola o‘zini shifokordek tasavvur qiladi, shu kasbga tegishli o‘yinchoqlar orqali turli harakatlarni bajaradi. O‘ynalayotga o‘yin jarayonida ba’zi bir narsalarni xohlagan narsalarining nomi bilan atab, xuddi o‘sha narsalarni faraz qilib juda yaxshi o‘ynaydilar. O‘yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalaydi. Rolli o‘yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. Bu o‘yinda bolalar juda ko‘p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to‘g‘ri keladi. Bular bola tafakkuri va hayolining rivojlanishiga muhim ahamiyatga egadir.

Rolli o‘yinlarning boshqa o‘yinlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Bolalar biror narsa yoki voqea to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Rolli o‘yinlar jamoatchilik xususiyatiga ham egadir. Rolli o‘yinlarda har bir bola o‘ziga olgan rolini bajaradi. Syujetli-rolli o‘yinlarda, qat’iy o‘rnatilgan qoidalar bo‘lmaydi. Bolalar yoshiga qarab syujetli o‘yinlarni o‘ynay boshlaydilar xususan: 2 yoshda syujetni aks ettirish yuzaga keladi, bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi; 3 yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi; 4 yoshga o‘tganda syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynashi ancha rivojlanadi, bolalar ko‘proq narsalarni aks ettirishadi.

Xulosa qilib aytganda, syujetli-rolli o‘yinlar bola hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Turli rollar bola ongida yangicha dunyolarni kashf qilishga va yangi kasb egalari bilan tanishishga yordam beradi. Natijada bolaning dunyoqarashi kengayadi. Syujetli-rolli o‘yinlarning yana bir ahamiyati shundaki, o‘yin mazmuni bilan bir qatorda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo‘ladi. Syujetli-rolli o‘yinlar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda o‘z "men"ining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bola ta’limiy faoliyatlarda turli rollarga kirishib o‘nashi natijasida o‘zidagi barcha qobiliyatlarni namoyon qilishga harakat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" 2013-yil.
2. F.K.Qodirova "Maktabgacha pedagogika" 2018-yil.
3. N.Qayumova "Maktabgacha pedagogika" 2013-yil.
4. Sh.Shodmonova "Maktabgacha ta’lim oedagogikasi" 2008-yil.
5. www.lex.uz.
6. www.pedagog.uz.